

ASQAR MAHKAM SHE'RIYATIDA BUVI OBRAZI

Baxtiyorova Gulshoda,

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti talabasi.

<https://orcid.org/0009-0006-6001-0325>

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir Asqar Mahkam ijodidagi eng muhim va oldingi o'rinlarda turuvchi obraz _ buvi obrazi va unga xos bo'lgan xususiyatlar, bu sifatlarning badiiy ifoda etilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Asqar Mahkam, she'r, shoir, buvi obrazi, badiiyat, umr, bolalik.

THE IMAGE OF THE GRANDMOTHER IN ASKAR MAHKAM'S POETRY

Baxtiyorova Gulshoda,

student of Philology and art faculty of Urgench state university

Annotation: in this article, the most important and foremost character in the work of the poet Askar Mahkam _ the character of the grandmother and its characteristics, the artistic expression of these qualities are analyzed.

Key words: Askar Mahkam, poem, poet, image of grandmother, art, life, childhood.

ОБРАЗ БАБУШКИ В ПОЭЗИИ АСКАРА МАХКАМА

Бахтиёрова Гулшода,

Студентка факультета Филологии и искусства Ургенчского государственного университета

Аннотация: в данной статье анализируется самый важный и главный персонаж творчества поэта Аскара Махкама _ характер бабушки и его характеристики, художественное выражение этих качеств

Ключевые слова: Аскар Махкам, стихотворение, поэт, образ бабушки, искусство, жизнь, детство.

She'riyat olamiga safar qilar ekanmiz, har qaysi shoirning ham o'z ilhom manbayi borligining guvohi bo'lamiz. Hamma ijodkor ham bir narsadan yoki

insondan ilhomlanmaydi. Kimdir hayotidagi voqea-hodisalardan, kimdir atrofidagi insonlar va ularning bir-biriga munosabatidan, kimdir tabiatdan, kimdir muhabbatdan, kimdir esa qalbidagi iymon nurlaridan ilhomlanadi. Asqar Mahkam esa ilohiy ishqdan ilhom olgan. Bu ishq hidi uning har bir she'ridan ufurib turadi. Shu bilan birga uning ilhom sarchashmasi bo'lgan zot_ buvisi. Hayotning beshafqat darralari bilan savalangan shoir Asqar Mahkam juda kichikligidan juda mushkul sinovlar bilan qarshilashdi. Tojikistonning Kofarnihon tumanida dunyoga kelgan bo'lajak shoir 4 yoshida baxtsiz hodisa tufayli otasidan ajralib qoladi. Shundan keyin onasi boshqa turmush qilib ketadi. Buvisi esa nabiralarini o'gay ota qo'liga berishga ko'zi qiymaydi. Ularni o'zi tarbiyalab katta qiladi. Asqar Mahkam dastlab Mulladavlat qishlog'idagi 49-maktabni tugallaydi. Keyin Xo'jand davlat universitetida o'qiydi. U yerni tamomlab, tumanidagi maktablarda o'qituvchilik qiladi. 1985-yild a esa Toshkentga keladi. Bu yerdagi adabiy muhit uni qo'yib yubormaydi. Shoir umrining oxirigacha shu yerda yashab ijod qiladi. Asqar Mahkam "Ruhoniyat va so'z" maqolasida yoshligi va ajdodlarini xotirlab shunday deydi: "Nom-u nasabini lo'nda qilib "machchoyi" (Shimoliy Tojikistonning tog'li muzofotida yashovchi xalq, asli "maschohlik")ning "samjun" urug'iga mansubligini ahyon-ahyon eslatib turadigan buvim Nigorbibi bo'lmaganida, ehtimol mening go'dakligim va bolaligim "sho'ro yetimxonolari"da kechgan bo'lardi. Loyiq Sherali bir zamon Mastchoh tog'larini kezib qaytgach, dunyoda mastchohlikning jonidan qattiqroq jon yo'q, degan mazmunda she'r yozgan. Kampir qattiqjon edi...

Odam farzandi boshiga jazo bo'lib kelgan oktabr hodisalaridan chamasi 10 yil burun Qo'qonning Yaypan tumanidagi Davlatbotir qishlog'ida tug'ilgan buvim "quloq-quloq" davrlarida bir guruh qo'qonlik muhojirlar bilan Janubiy Tojikistonning Hisor tizma tog'lari etagidagi Kofarnihon daryosini qamishzor to'qay sohillariga dovur qochib borib, o'ng'ayroq bir yerni obod qilishib yashay boshlashgan.

30-yillarda boshlangan to'qay obod qilish urushdan keyin ham davom etgan. Qishloq o'nglangach, unga dag'al bo'lsa-da "Jangalobod" deb nom berishgan. Ammo "sotsializm" degan tushuncha to'qayga ham kirib kelgach, qishloq nomini birmuncha murakkab va siyosiy "Ijtimoiyat" nomi bilan almashtirishgan. Bu mahol so'zni hech kim shu paytgacha mahrajini kelishtirib ayta olmaydi.

Otam Abdurahmon (Alloh rahmat qilsin) fojiali halok bo'lganida akam yetti yashar, opam besh yashar, men uch yashar, ukam bir yashar edik.

Onamiz turmushga chiqib ketgach, kampir buvimiz bizni o'gay ota qo'liga bermagan. "O'zim katta qilaman..." degan qaysar va qattiqjon kampir... Keyinchalik bir etak nonxo'rni bir kmpir eplolmasa kerag-ov, deb yetimxonalar eshigini ko'rsatgan kimsalarni ham bu "machchoyi xotin" umrining so'nggi

damlarigacha kechirmadi. Mehnat va ibodatdan bo‘lak hech narsani bilmagan kampir buvim Xudoyi taoloning bizga ko‘rsatgan marhamati edi. Men yetimlik, judolike, og‘ir mashaqqatlar yoshiga qorilgan bu marhamati uchun Allohga hamdlar aytaman¹.

Shoirning “Bu uyda bir vaqtlar buvim yashagan”, “Buvimga maktub”, “So‘nggi xato”, “Men buvimni esladim yana”, “Sen ko‘cha ko‘rmagan bir ayol eding”, “Buvimga yuborilmagan maktub”, “Buvim yolg‘iz qoldi...”, “Buvim bilan xayrlashuv kabi she‘rlarida buvisini yodga oladi. Uning mehribonligi-yu jonkuyarligini, fidoyiligini madh etadi.

Bu uyda bir vaqtlar buvim yashagan,
mehrsiz kelinin dastidan yonib.
Poydevor toshini o‘zi tashlagan,
bizlarga non yopgan tunlar uyg‘onib.²

Asqar Mahkam o‘z bolaligi o‘tgan uyga kelar ekan uning esiga beixtiyor shu uyning farishtasi_buvisi tushadi. Buvi “mehrsiz kelin”, ya’ni shoirning onasi, uning o‘z bolalariga mehrsizligi, boshqa turmush qilgani tufayli to‘rtta bolasini kekxa kampirga taslab ketadi. Buvi esa ularni ko‘z qorachig‘iday asraydi, boqib tarbiya qiladi. Tunlari uyg‘onib xamir qorib, tandirga o‘t yoqib, erta bilan nabiralarini tandirdan endi uzilgan issiq nonlardan beradi.

O‘zi yer chopardi, o‘zi ekardi,
nevara tashvishi, besh mahal namoz.
G‘am oshib ketganda nos ham chekardi,
Qo‘shnilar goh yarash, gohida araz.³

Yuqoridagi misralardan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak shoir mushtipar buvisining mashaqqatlari-yu mehnatlarini ko‘rib katta bo‘ladi. Ro‘zg‘orning butun tashvishi Nigorbibi buvining boshiga tushadi. Erkak kishi qiladigan og‘ir ishlar bo‘ladimi, yosh juvonlar yugurib-yugurib qiladigan yumushlar bo‘ladimi uning zimmasida edi. “O‘zi yer chopardi, o‘zi ekardi”. Tinmay mehnat qilardi. Nevaralarining harhashasi-yu injiqliklarini yolg‘iz o‘zi ko‘tarardi. “Besh mahal namoz” o‘qirdi. Ibodat qilardi. “G‘am oshib ketganda nos ham chekardi”. Shunga o‘xshash obrazni biz G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida uchratishimiz mumkin. Unda ham to‘rtta yetim nevarasi bilan qolgan saksondan oshgan Roqiya buvi noskash kampir deb ta’riflangan edi.

¹ Asqar Mahkam. Analhaq._Toshkent, 2003-y.

² Asqar Mahkam. Bu ishq edi. _Toshkent, 2017-y.9-b.

³ Asqar Mahkam. Bu ishq edi. _Toshkent, 2017-y. 9-b.

Men qishloqdan ketdim ...
O‘g‘riday
Talon qilib buvim bisotin.
Oq sochlarin yopgan o‘g‘irday
Titrar edi mo‘rilarda tun.
Qishlog‘imdan shu zayl ketdim,
Qaramadim na bor, na yo‘qqa.
Men la’nati “shoirman” dedim,
Och sigirga, itga, tovuqqa.⁴

Ushbu parcha Asqar Mahkamning “So‘nggi xato” she‘ridan olingan. Universitetni Tojikistonda tugatgan ijodkor ijodiy kamolotga erishish uchun Toshkentga yo‘l oladi. Qishloqdan brogan odamga shaharda o‘zini tiklab olish uchun mablag‘ kerak bo‘ladi. Shoir ham aynan shuni nazarda tutgan holda “Men qishloqdan ketdim o‘g‘riday talon qilib buvim bisotin”, deya ta’kidlaydi. Shoir qishlog‘idan qish tunlaridan birida, ya’ni mo‘rilarda tun titrayotgan paytda qishloqdan shaharga yo‘l oladi. Lirik qahramon shu vaqtlar sigir, tovuq, itlar och bo‘lsa ham, “men shoirman deb, borga, yo‘qqa qaramay yo‘lga otlanganini eslab o‘zini “la’nati” deya koyiydi. Shu paytlardagi g‘o‘r va tajribasiz shoirni tanqid qiladi. Ayniqsa, har bir misrada mehnatkash va mushtipar buvisining yelib-yugurishlari evaziga kelgan daromadni sarflagani, uning qancha qiyinchiliklar bilan yig‘gan bisotini sarflagani uchun o‘zini tergaydi. Shu orqali ham lirik qahramonning, shoirning, buvisiga bo‘lgan mehr-oqibatini, e’zozini, uni chin dildan yaxshi ko‘rib, qadrlaganini bilib olishimiz mumkin.

Asqar Mahkamning “Jannatmakon buvim vafotidan bir yil so‘nggi yo‘qlovim” deb nomlangan she‘ridan olingan quyidagi misralarga e’tibor beraylik:

Bilaklari kosovrang buvim,
yonoqlari olovrang buvim.
Sochlarida bodiyalarim,
so‘ngaklari sojidalarim.⁵

Shoir buvisining o‘limidan keyin uni yodga olaganda, buvisining “kosovrang” bilaklari, olovrang yonoqlari, oq oralagan sochlari esiga keladi. “Bilaklari kosovrang” ifodasini shoir buvisining umri qanchalik og‘ir mehnatda o‘tganini

⁴ Asqar Mahkam. Bu ishq edi. _Toshkent, 2017-y. 13-b.

⁵ Asqar Mahkam. Bu ishq edi. _Toshkent, 2017-y. 101-b.

bildirish uchun qo‘llaydi. Kosov deganda o‘t, olovni to‘g‘rilash, tortish va shu kabilar uchun ishlatiladigan yog‘och yoki temir tayoqni⁶ tushunamiz. Unga olov yoqish uchun qalangan o‘tinlarni to‘g‘rilanganda kul yuqib qoladi. Shoir ham buvisining qadoq bo‘lib ketgan qo‘llarini badiiy tarzda tasvirlash uchun ham aynan “bilaklari kosovrang” ni ishlatadi. “Yonoqlari olovrang” ifodasi esa buvisining qishin-yozin tinmay mehnat qilishini ifodalayapti. Haqiqatdan ham chumolidek ishlayveradigan odamning yonoqlari qishning sovug‘ida, yozning issig‘ida qizarib ketadi. “Sochlarida bodiyalarim” birikmasidagi bodiya so‘zi cho‘l yoki biyobon ma’nosini anglatadi. Bu sifatlash shoirning buvisining sochlari oqarib, to‘kila boshlaganini ifodalash uchun qo‘llanadi. Uning umri davomida qanchadan qancha qayg‘u-alam hamda iztiroblarga muhtalo bo‘lganligini she’rxonga ta’sirli ohangda yetkazib beradi. Oxirgi misrada esa shoir buvisining suyaklarini “sojidalarim” deya ta’riflaydi. Sojida so‘zining ma’nosi sajda qiluvchi, Allohga sig‘inuvchi, taqvodor ayol demakdir. Ijodkor buvisining suyaklari sajda qiluvchi deyish orqali uning muslima ayol ekanligini ifodalayapti.

Asqar Mahkam she’rlarini o‘qir ekanmiz, uning buvisiga bo‘lgan cheksiz mehrini, muhabbatini va sog‘inchini chin qalbimiz bilan his etamiz. Ko‘pchilik she’rlari boshqa mavzuda yozilgan bo‘lsa-da, shoir buvisini eslab o‘tadi. She’rdagi qaysidir his uning yodiga buvisini, qishlog‘ini, bolaligini soladi. Buvisini qo‘msab yozgan ijod namunalarida esa buvisining fidoyiligi, mehnatkashligi-yu mushtiparligini unga bo‘lgan chek-chegarasiz sog‘inchini kuylaydi. Bu ajib tuyg‘ularni Asqar Mahkam o‘zining yuksak badiiy mahorati bilan bir san’at asariga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqar Mahkam. Analhaq. _Toshkent, 2003-y.
2. Asqar Mahkam. Bu ishq edi. _Toshkent, 2017-y.
3. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. _Toshkent, 1999-y.
4. Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug‘ati. _Toshkent, 1972-y.
5. <https://izoh.uz> internet sayti.
6. <https://ismlar.com> internet sayti.

⁶ <https://izoh.uz> internet sayti.